

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 40 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	18
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	



MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI

Quliyev Begimqul Melikovich

SamISI Investitsiya va innovatsiyalar kafedrası dotsenti v.b., PhD

Email: bekkuliye8@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayoni moliya sanoatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda, uning asosiy xususiyatlaridan biri esa innovatsiyalarni faol joriy etish hisoblanadi. Moliyaviy innovatsiyalar global raqobat va globallashuv sharoitida moliya tizimi rivojlanishining sifatini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Ushbu maqolada "moliyaviy innovatsiyalar" atamasining konsepsiyasi va rivojlanishiga nazariy yondashuvlar ko'rib chiqilib, tizimlashtiriladi, shuningdek, moliyaviy innovatsiyalar konsepsiyasi hamda ularning moliya tizimi va umuman iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri baholanadi. Ishda moliyaviy innovatsiyalarning ta'riflari va tasnifi keltiriladi, shu bilan birga, ularning xususiyatlariga oid munozarali masalalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: moliya tizimi, moliyaviy innovatsiyalar, moliyaviy beqarorlik, bozor noaniqligi, zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: Today, the process of digitization in the world economy has had a significant impact on the financial industry, one of its main features is the active introduction of innovations. Financial innovations are considered a means of improving the quality of development of the financial system in the conditions of global competition and globalization. The article includes a review and systematization of theoretical approaches to the concept and development of the term "financial innovations", an assessment of the concept of financial innovations and their impact on the development of the financial system and the economy as a whole. The work presents definitions and classifications of financial innovations, and also considers controversial issues regarding the characteristics of financial innovations.

Key words: financial system, financial innovations, financial instability, market uncertainty, modern technologies, digitization, financial stability.

Аннотация: Сегодня процесс цифровизации в мировой экономике оказал существенное влияние на финансовую отрасль, одной из главных его особенностей является активное внедрение инноваций. Финансовые инновации рассматриваются как средство повышения качества развития финансовой системы в условиях глобальной конкуренции и глобализации. Статья включает обзор и систематизацию теоретических подходов к понятию и развитию термина «финансовые инновации», оценку понятия финансовых инноваций и их влияния на развитие финансовой системы и экономики в целом. В работе представлены определения и классификации финансовых инноваций, а также рассмотрены спорные вопросы относительно характеристик финансовых инноваций.

Ключевые слова: финансовая система, финансовые инновации, финансовая нестабильность, рыночная неопределенность, современные технологии, цифровизация, финансовая устойчивость.

KIRISH

Bugungi iqtisodiy rivojlanish har bir sohada ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq bo'lib, bu milliy darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib kelayotgan innovatsiyalar davlatlararo tartibga solish nuqtai nazaridan ham, xalqaro va milliy moliyaviy tizimlar tuzilmalarida ham muhim o'zgarishlarni rag'batlantirmoqda.

Xalqaro fond bozorida savdo hajmining o'sishi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi, yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi va global raqamlashtirish tendensiyasi bugungi kunda moliya sektorining globallashuv jarayoniga maksimal darajada integratsiyalashganini ko'rsatmoqda. Moliya tizimi har qanday iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, zamonaviy moliya tizimining asosiy xususiyati innovatsiyalarning yuqori sur'atidir. Aynan taraqqiyotning innovatsion yo'li iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab, jahon moliyaviy maydonida mamlakatlarning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

So'nggi o'n yilliklarda moliyaviy innovatsiyalar ilmiy hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otganiga qaramay, ularning yagona ta'rifi shakllanmagan, tadqiqotlar esa, muallifning fikricha, hali yetarlicha tizimli emas.



Moliyaviy innovatsiyalar ijtimoiy taraqqiyotning borishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ularning kuchi shundaki, ular iqtisodiy rivojlanish uchun kapital resurslaridan to'liqroq foydalanishga yordam beradi, xususan, likvidli ortiqcha mablag'larni qayta taqsimlashni samaraliroq amalga oshiradi va shu orqali kelajakning ko'p jihatlarini belgilaydi. Ba'zi hollarda moliyaviy innovatsiyalar bozorlarni yangilaydi, moliyaviy resurslarga talab va taklifni optimallashtiradi, kapitalning iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmini kuchaytiradi va xavf-xatarlarni cheklaydi. Boshqa hollarda esa ular pul-kredit sohasida, shuningdek, butun iqtisodiyotda inqirozli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda ular risk va qarama-qarshiliklarni kamaytirish o'rniga, aksincha, kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas.

Moliyaviy innovatsiyalarga turlicha yondashuvlar mavjud. Moliyachilar nuqtai nazaridan ular pul-kredit, investitsiya va fiskal sohalariga ta'sir ko'rsatib, xizmat ko'rsatish va boshqaruv mexanizmlarini, shuningdek, banklar, sug'urta va investitsiya kompaniyalarining mahsulot qatorini o'zgartiradi. Sotsiologlarning ta'kidlashicha, moliyaviy innovatsiyalar aholining xulq-atvoriga, ongiga va ijtimoiy faolligiga ta'sir qiladi. Madaniyatshunoslar iqtisodiy va moliyaviy madaniyatdagi sezilarli siljishlarni, jamiyatning o'ziga xos madaniy xususiyatlarini shakllantirish jarayonlarini qayd etadilar.

Shu bilan birga, siyosiy omil eng katta e'tiborni tortadi. Innovatsion o'zgarishlarning asosiy natijalaridan biri moliya tizimining siyosiylashuv darajasining ortganidir. Bu jarayon valyuta va foiz siyosatidagi raqobat shaklida emas, balki moliya tizimini geoiqtisodiy jihatdan qayta qurish, investitsiya ustuvorliklarini o'zgartirish va kapital markazlarining global taqsimotini yangilash tendensiyalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy innovatsiyalarning mohiyatini va ularning turli iqtisodiy tizimlarning innovatsion salohiyatini rivojlantirishdagi faol rolini baholash masalalari bir necha yillardan buyon muhokama va tadqiqot mavzusi bo'lib kelmoqda. Bu esa ushbu muammoning iqtisodiyot uchun ahamiyati va dolzarbligini tasdiqlaydi. Innovatsion moliyaviy jarayonlar haqidagi ilmiy g'oyalarning rivojlanishi J. Shumpeter, P. F. Druker, K. Devis, B. Grem, F. Mishkin, M. Yunus, R. Zingales, Z. Bodi, R. Merton, X. Minski va boshqa tadqiqotchilar nomlari bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi vaqtda amaliyotda "moliyaviy innovatsiya" tushunchasiga yagona yondashuv mavjud emas. Soddalashtirilgan ma'noda bu atama bitim taraflaridan biri uchun yangi bo'lgan moliyaviy harakatlar to'plamini anglatadi.

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsiyalar natijasida yuzaga keladigan pul va moliyaviy shoklarga bog'liqligini aniqlash uchun turli tadqiqotlar o'tkazilgan. Ba'zi tadqiqotlarda ularning iqtisodiy sikllarni yumshatishdagi roli asoslab berilgan [1]; boshqalarida inqiroz jarayonlariga ta'siri aniqlangan [2]; yana boshqalarida esa ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi ishtiroki ko'rsatilgan [3]. Keng tarqalgan fikrlarga ko'ra, "moliyaviy innovatsiyalar bir vaqtning o'zida ijtimoiy rivojlanishning dvigateli va iqtisodiy zaiflik manbai" hisoblanadi [4]. Bu holat moliyaviy innovatsiyalarning murakkab va ikki tomonlama mohiyatini ko'rsatadi: bir tomondan, ular foydalidir, chunki jamiyatning ko'plab muammolarini hal qiladi va rivojlanishga yo'naltiradi; boshqa tomondan esa, ularning keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlari e'tibordan chetda qolsa, jiddiy risk tug'dirishi mumkin.

Ko'pincha moliyaviy innovatsiyalar pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlarga qisqartirib talqin qilinadi. Biroq, kengroq yondashuvlarga ko'ra, ular butun moliyaviy soha faoliyatidan kelib chiqadi va nafaqat bozorni, balki davlatni ham o'zgartiradi. Shu bois, moliyaviy o'zgarishlar umumiy taraqqiyot va bozorning doimiy yangilanishining muhim dalillaridan biridir.

2012-yilda Jahon Iqtisodiy Forumi doirasida birinchi marta "moliyaviy innovatsiyalar" tushunchasi taklif etildi va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi roli aniq belgilandi. Muhokamaning asosiy qoidalari va xulosalari maxsus axborot hisobotida e'lon qilindi [5]. Uning mualliflari ikki masalaga e'tibor qaratdilar: moliyaviy innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj va ularni takomillashtirish imkoniyatlari.

Amerikalik iqtisodchi va Nobel mukofoti sovrindori Merton X. Miller o'z tadqiqotida moliyaviy innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini ta'kidlaydi va moliyaviy innovatsiyalar bilan farovonlik darajasining oshishi, kapital qiymatining pasayishi, moliyaviy risklar darajasi hamda moliyaviy vositachilik sifatining yaxshilanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi [6].

Robert Merton esa o'zining "Financial Innovation and Economic Performance" maqolasida moliyaviy innovatsiyalarni moliyaviy tizimni oldinga siljituvchi vosita sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, moliya tizimining asosiy vazifasi noaniqlik sharoitida ham makonda, ham vaqt ichida resurslarni taqsimlashni osonlashtirishdir. R. Merton moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning uchta yo'lini ko'rsatadi: risklarni kamaytirish, himoya qilish va resurslarni taqsimlash uchun yangi qimmatli qog'ozlar yoki fond bozori vositalarini yaratish;

tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish yoki likvidlikni oshirish;



axborot assimetriyasi yoki agentlar faoliyati ustidan nazoratning to'liq emasligi oqibatida kelib chiqadigan agentlik xarajatlarini kamaytirish.

P. Tufano [7] moliyaviy innovatsiyalar bozorining samarasizligi yoki nomukammalligini bartaraf etishga yordam berishi mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan, to'liq bo'lmagan ma'lumotlar sharoitida moliyaviy innovatsiyalar risklarni taqsimlash imkoniyatlarini beradi. Yoki agentliklar o'rtasida ziddiyat paydo bo'lgan hollarda yangi turdagi qimmatli qog'ozlar manfaatlar uyg'unligini ta'minlashi mumkin.

E. F. Jukov yozishicha, moliya institutlari, jumladan banklar, qo'shimcha resurslarni jalb etish manbai sifatida moliyaviy bozorlarning boshqa turlarida paydo bo'lgan vositalar, mahsulotlar va operatsiyalarga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda [8].

A. G. Gryaznova tomonidan tahrir qilingan "Moliya-kredit ensiklopedik lug'ati"da moliyaviy innovatsiyalar yangi moliyaviy mahsulot yoki vosita sifatida izohlangan [9].

A. Andreev esa moliyaviy innovatsiyalarni ma'lum darajadagi tavakkalchilik, likvidlik va rentabellik darajasiga ega bo'lgan, moliya bozori ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondiradigan pul resurslarini qayta taqsimlash shakli sifatida yangi moliyaviy vositalar yaratish deb ta'riflaydi [10].

Umuman olganda, olimlar moliyaviy innovatsiyalarni "yangi moliyaviy vositalar, texnologiyalar, institutlar, bozorlar, jarayonlar va biznes modellarini yaratish va keyinchalik ommalashtirish, shu jumladan boshqa bozor kontekstida mavjud g'oyalarni qayta qo'llash amaliyoti" sifatida ta'riflaydilar. Ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi moliya bozori ishtirokchilarining o'z maqsadlariga erishishda moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, yangi ehtiyojlarni yuzaga keltiradi, moliya muhandislarining faoliyatini kuchaytiradi va biznes aylanmasi ishtirokchilari duch keladigan murakkab masalalarni hal etishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar bozor ko'rsatkichlari asosida to'plandi. Statistik ma'lumotlar rasmiy manbalardan olindi, ularning tahlilida qiyosiy, dinamik va strukturaviy usullardan foydalanildi. Shuningdek, moliyaviy innovatsiyalar qo'llanishi va rivojlanishi bo'yicha xalqaro tajriba amaliy jihatdan solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy innovatsiyalar ta'rif moliya tizimining asosiy elementlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular yangi ishlanmalar, faoliyat ko'rsatishdagi o'zgarishlar, yangi yechimlar va moliya tizimining tarkibiy qismlaridagi yangiliklar sifatida belgilanadi. Ikkinchisiga moliya bozorlari, moliya institutlari, moliyaviy vositalar va moliyalashtirish qoidalari, shuningdek, operatsiyalarga oid qoidalar kiradi. Tor ma'noda innovatsiyalar moliyaviy vositalarga qo'llaniladigan o'zgarishlar (yangi, o'zgartirilgan yoki aralash vositalarning yangidan qo'llanilishi), keng ma'noda esa moliya tizimi elementlarida (bozorlar, institutlar, vositalar va qoidalar) yangi ishlanmalar bilan bog'liq.

Iqtisodiy hayotda moliyaviy innovatsiyalarning ahamiyati sezilarli darajada oshganiga qaramay, moliya nazariyasi ularga aniq ta'rif bermagan, bu Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tasdiqlangan. Ehtimol, bu holat sanoat inqiloblari va uzluksiz texnologik taraqqiyot ta'sirida bo'lgan moliyaviy innovatsiyalarning murakkab tabiati bilan bog'liq. Shunday qilib, hozirgi texnologik o'zgarishlar va raqamli ma'lumotlar olamidagi inqilob moliyaviy innovatsiyalarni uning iqtisodiy konsepsiyasida davom etayotgan raqamli inqilob bilan o'zaro aloqada o'rganish zaruratini tug'dirdi.

Moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish moliya bozori ishtirokchilariga turli xil imkoniyatlarni taqdim etadi (masalan, xarajatlarni pasaytirish, tezroq ma'lumot almashish, ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish, xizmatlarni moslashtirish va boshqalar). Texnologik innovatsiyalar moliya bozorining samaradorligini oshiradi, iste'molchilarning xohish-istaklarini shakllantiradi va yangi kompaniyalar uchun kirish xarajatlarini kamaytiradi. Fintech moliyaviy institutlarning an'anaviy biznes modellariga raqobatbardosh bosim o'tkazadi, qo'shimcha vositachilarni jalb qilish zaruratini bartaraf etadi, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning yangi usullarini rag'batlantiradi.

Bugungi kunda Fintech-dan foydalangan holda taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi an'anaviy moliyaviy operatsiyalar hajmiga nisbatan hali ham sezilarli darajada kichik, ammo Fintechning o'sish sur'ati beqiyos yuqori. Texnologiyalarning intensiv o'sishi ko'plab Fintech kompaniyalarining paydo bo'lishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda. Moliyaviy institutlar ko'pincha Fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishni afzal ko'radilar va ularni potentsial raqobatchilar sifatida qabul qilmaydilar[11].

Bundan tashqari, moliyaviy innovatsiyalar korporativ boshqaruv va investitsiyalar sohasiga faol kirib bormoqda. Crowdfunding va peer-to-peer kreditlash kabi innovatsion moliyaviy vositalar tadbirkorlar va investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ular qo'shimcha moliyalashtirish manbalarini jalb qilish va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam bermoqda.




Moliyaviy innovatsiyalarni tartibga solish va intellektual mulkdan foydalanish huquqlarini belgilash masalasi ham faol muhokama qilinmoqda. Ayrim olimlar va iqtisodchilar moliyaviy sohadagi innovatsiyalarni patent sifatida rasmiylashtirish va shu orqali innovatsiyalar rivojlanishini rag'batlantirish zarur deb hisoblaydilar[12]. Biroq, ko'pgina moliyaviy innovatsiyalar patent muhofazasi uchun qo'llanilmaydi, degan fikr mavjud. Shuningdek, bunday patentni olish ko'p mehnat talab qiladigan va uzoq davom etadigan jarayon hisoblanadi.

Moliyaviy innovatsiyalar tarkibi ko'plab manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi. Bu jismoniy shaxslar, moliyaviy va nomoliyaviy tashkilotlar, davlat, bozorlar va birjalar, shuningdek, texnologiyalarni yaratishda bevosita ishtirok etuvchi kompaniyalar bo'lishi mumkin. Ularning barchasi innovatsion jarayonning ishtirokchilari bo'lib, unda turli darajada qatnashadilar: vositachilar, innovatsiyalar yaratuvchilari yoki oxirgi foydalanuvchilar sifatida. Ba'zi tadqiqotchilar moliyaviy innovatsiyalar hodisasini ochiq innovatsiyalar misoli deb hisoblaydilar (1-rasm). Ularning fikricha, yangi vositalar, mahsulotlar yoki xizmatlarni moliya institutlari ichida ham, tashqarisida ham yaratish mumkin[13].

Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy innovatsiyalar ko'pincha faoliyat turlari bo'yicha tasniflanadi. Jon D. Finnerti moliyaviy innovatsiyalarning tasnifini uchta yo'nalish bo'yicha aniqlagan: qimmatli qog'ozlardagi innovatsiyalar, innovatsion moliyaviy jarayonlar, korporativ moliyaviy yechimlar. Ushbu iqtisodchi moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali soliq imtiyozlariga ega bo'lish, foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi riskini kamaytirish, tranzaksiya va agentlik xarajatlarini pasaytirish va moliyaviy vositalarning likvidlik darajasini oshirish mumkinligini ta'kidlagan.

Keng ma'noda moliyaviy innovatsiyalar konsepsiyasini qamrab oluvchi tasnif Kanada Iqtisodiy Kengashi tomonidan ham ishlab chiqilgan bo'lib, innovatsiyalar uchta keng toifaga ajratilgan: bozorni kengaytirish vositalari, risklarni boshqarish vositalari, arbitraj vositalari va jarayonlari (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy innovatsiyalar ochiq innovatsiyalarga misol sifatida

Birinchi toifadagi moliyaviy innovatsiyalar moliya bozorlarining likvidligini oshiradi. Ikkinchi toifa moliyaviy riskni qayta taqsimlash imkonini beradi. Oxirgi toifa esa bozor ishtirokchilariga bozorlar o'rtasidagi xarajatlar va daromadlardagi farqlardan foydalanish imkonini beradi.

Moliyaviy innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirishga ta'sir qiluvchi eng muhim omillar sifatida globallashtirish, vositachilikni yo'qotish (muqobil moliyalashtirishning rivojlanishi natijasida), moliya bozorida o'zgaruvchanlikning kuchayishi, tartibga solishning bekor qilinishi, kapital oqimining liberallashtirish va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ko'rsatiladi[14]. Binobarin, ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy innovatsiyalarni amalga oshirishning doimiy o'zgarishi ularning xususiyatlarining ham rivojlanib borishiga olib keldi:

moliya bozorining barcha segmentlari uchun majburiy;

turli shakllarda: yangi moliyaviy vositalar, operatsiyalar, texnologiyalar yoki strategiyalar;

moliyaviy innovatsiyalar, sanoat innovatsiyalaridan farqli o'laroq, yangi mahsulotlarga taalluqli emas va ko'p jihatdan ularning asosi mavjud moliyaviy vositalardan kelib chiqadi;

moliyaviy innovatsiyalar nafaqat bank sektori bilan bog'liq, ular moliyaviy va nomoliyaviy institutlarni qamrab olgan holda undan oshib ketgan;



moliya bozori ishtirokchilari uchun iqtisodiy manfaatlarga erishish. Iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaviy innovatsiyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. U moliya tizimidagi maqsadni aks ettiradi, foydani oshirish yoki xarajatlarni kamaytirish orqali iqtisodiy foyda olishga qaratiladi. Bu esa tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi va ularga yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi;

moliyaviy innovatsiyalarning xalqaro xarakteri. Globallashuv va xalqaro moliyaviy integratsiya innovatsiyalarga xalqaro xususiyat yukladi, bu hozirgi paytda muhim xususiyat hisoblanadi.

Global inqirozdan keyin moliyaviy texnologiyalarning paydo bo'lishi moliyaviy operatsiyalarning tiklanishiga katta hissa qo'shdi, ammo oldingi versiyalardan farq qiladigan raqamli shaklda. Blokcheyn texnologiyasi raqamli platformalar bilan bir qatorda raqamli va shifrlangan valyutalarni ham joriy etishga imkon berdi. Bu esa bozorlarning jismoniy mavjudligini bartaraf etib, turli tomonlar o'rtasida operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi va shu bilan geografik chegaralarning ahamiyatini pasaytirdi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi, global integratsiya yaqqol namoyon bo'ldi.

Moliyaviy innovatsiyaning iqtisodiy konsepsiyasida muvaffaqiyatli innovatsion faoliyat investitsiyalar va iqtisodiy foyda bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ular moliya bozorlarining raqobatbardoshligini oshiradi, yaqinlashuvning kuchayishiga va moliya markazlari o'rtasidagi chegaralarning bekor qilinishiga olib keladi. Moliyaviy innovatsiyalar bozorda omon qolish, o'sish va faoliyatni davom ettirish uchun korxonalarning samaradorligi va raqobatdosh ustunligining ko'rsatkichlaridan biridir.

Texnologik ishlanmalardan foydalanish va malakali inson mehnati tufayli moliya institutlari innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'ldi. Moliya bozori rivojlanishining so'nggi tendensiyalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, moliyaviy innovatsiyalarni yaratishning harakatlantiruvchi kuchi bozor ishtirokchilarining o'ziga xos ehtiyojlari hisoblanadi. Odatda, mavjud moliyaviy mahsulotlar bu ehtiyojlarni to'liq qondirmaydi. Shu sababli, moliya bozorida yangi moliyaviy vositalar va texnologiyalarning paydo bo'lishi iqtisodiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Innovatsion rivojlanishning turli bosqichlari moliyaviy xizmatlar bozorini tubdan o'zgartirish qobiliyatiga ega ekanini isbotladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy innovatsiyalar samarali va moslashuvchan kapital bozorlarini yaratish uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan moliya tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. "Moliyaviy innovatsiyalar" tushunchasini shakllantirishda mavjud nazariy yondashuvlarni birlashtirib, quyidagi ta'rifni taklif qilish mumkin: moliyaviy innovatsiyalar – bu yangi moliyaviy vositalar, texnologiyalar, institutlar va bozorlarni yaratish va ulardan foydalanish natijasidir. Ular to'lov tizimining sifati va samaradorligini oshiradi, investitsiyalar hamda mablag'larni jalb qilish jarayonlarini soddalashtiradi, shuningdek, iqtisodiyotda pul-kredit tizimining mexanizmlarini takomillashtiradi.

Zamonaviy moliya tizimi innovatsiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishning yuqori sur'atlari bilan tavsiflanadi. Ular tizimning barcha elementlarida qo'llaniladi: moliya bozorlarida, moliya institutlarida, moliyaviy vositalarda va hatto huquqiy hujjatlarda. Moliyaviy innovatsiyalarni turli mezonlar asosida tasniflash mumkin, ammo ularning moliya tizimi va umuman iqtisodiyotga ta'siri ravshan. Moliyaviy innovatsiyalarni yaratish jarayoni axborotga kirishni yengillashtiradi, savdo va to'lov usullarini soddalashtiradi, yangi moliyaviy vositalar va xizmatlar, tashkilotlarning yangi shakllari hamda samaraliroq moliya bozorlarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi.

Shunday qilib, moliyaviy innovatsiyalar – bu xarajatlarni kamaytirish, risklarni minimallashtirish yoki taqsimlash, bozor ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirish imkonini beradigan vosita, mahsulot yoki xizmatni taqdim etish jarayonidir. Jahon moliyaviy inqirozi tajribasi shuni ko'rsatdiki, tizimli risklarni minimallashtirish uchun moliyaviy innovatsiyalarni to'g'ri tartibga solish zarur. Bugungi kunda zamonaviy voqelikda moliya tizimining samaradorligini oshiradigan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan va xalq farovonligini ko'taradigan barqaror moliyaviy innovatsiyalarni yaratish muhim.

Moliyaviy innovatsiyalarni samarali joriy etish va ulardan foydalanish yangi bilimlarni izlashni, innovatsion jarayonlarni chuqur tahlil qilishni hamda ularni tatbiq etish oqibatlarini har tomonlama baholashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bencivelli L., Zaghini A. Financial Innovation, Macroeconomic Volatility and the Great Moderation. *Modern Economy*, 2012, vol. 3, pp. 542–552.
2. Jermann U., Quadrini V. Macroeconomic Effects of Financial Shocks. *American Economic Review*, 2012, vol. 102, no.1, pp. 238–271.
3. Shiller R.J. Capitalism and Financial Innovation. *Financial Analysis Journal*, 2013, vol. 69, issue 1, pp. 21–25.
4. Lerner J., Tufano P. The Consequence of Financial Innovation: A Counterfactual Research Agenda. *Annual Review of Financial Economics*, 2011, vol. 3, pp. 41–85.



5. Rethinking Financial Innovation. Reducing Negative Outcomes While Retaining The Benefits. World Economic Forum. Report by Oliver Wyman and Clifford Chance LLP. Geneva, WEF, 2012. P. 92.
6. Miller M.H. Financial innovation: the last twenty years and the next. J Financ Quant Anal. 1986. 21(04). P. 459–471.
7. Tufano P. Financial innovation. In: Constantinides G., Harris M., Stultz R. Handbook of the economics of finance. Elsevier, Amsterdam. 2003. P. 307–335.
8. Жуков Е. Ф. Рынок ценных бумаг. – М.: Юнити-Дана, 2008.
9. Финансово-кредитный энциклопедический словарь/под общ.ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2004. – С. 306.
10. Андреева А.В. Инновационные стратегии развития финансовых корпораций. Экономический вестник Ростовского государственного университета. 2008. Том 6 № 3. Часть 2.
11. Beyond Fintech: A Pragmatic Assessment of Disruptive Potential in Financial Services. Part of the Future of Financial Services series. World Economic Forum in collaboration with Deloitte. August 2017.
12. Al-Sharieh S., Mention A. Open innovation and intellectual property: the relationship and its challenges. In: Ran B (ed) Contemporary perspectives on technological innovation, management and policy: dark side of technological innovation. Information age publishing. Charlotte, 2013. P. 111–136.
13. Lerner J. The litigation of financial innovations. J Law Econ. 2010. 53(4). P. 807–831.
14. Blach J. Barriers to financial innovation - corporate finance perspective. Journal of Risk and Financial Management. 2020; 13(11): P. 273.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>